

Metallarni payvandlash simlari bilan gaz alangasida payvandlash haqida bilamiz. Bu usuldan metallarni yonuvchi gazlarning kislorod bilan gorelkada ma'lum nisbatda aralashtirib, havoda yondirilgan alanga mash'alida qizdirib payvandlanadi. Bu usul oddiyligi, alangani oson rostlanishi, qimmatbaho uskunalarni talab etmasligi, alanga mash'alini payvandlash joyiga zarur burchak ostida yo'naltirilishi, chokni bostirishni nazorat etilishi, sekin, bir tekisda payvandlash joyini qizdirilishi kabi afzalliklariga ega. Lekin elektr yoy yordamida payvandlashga qaraganda issiqlikni ta'siri zonasini kengligi, metall qalinligi ortishida ish unumini pasayishi, payvandchi malakasini yuqori boiishi kabi kamchiliklari bor. SHunga qaramay bu usuldan po'lat, cho'yan, rangli metallar va ularning qotishmalaridan tayyorlangan listlar, kichik diametrli trubalarni, eyilgan detallarni tegishli metallar bilan qoplab tiklashda va ta'mirlash ishlarda keng qo'llaniladi.